XALQ DEPUTATLARI PAXTACHI TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2025-yil 25-fevral VII-6-24-7-102-K/25 Paxtachi tumani

Xalq deputatlari Paxtachi tuman Kengashining 2023-yil 29-dekabrdagi “Paxtachi tumanining 2024-yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida”gi VI-99-156-7-102-K/23-sonli qaroriga o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Budjet kodeksining 147-moddasiga hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 12-avgustdagi “Ish haqi, pensiyalar va nafaqalar miqdorini oshirish to‘g‘risida”gi PF-108-son Farmoni ijrosini ta’minlash maqsadida va bu boradagi tuman hokimi birinchi o‘rinbosarining 2025-yil 4-fevraldagi 02-18/0044-sonli bildirgisi hamda tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limining 2025-yil 31-yanvardagi 01-02-66-sonli xulosalariga asosan xalq deputatlari Paxtachi tumani Kengashining yettinchi chaqiriq oltinchi sessiyasi

QAROR QILADI:

1. Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (U.Arnaqulov) va tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limining xalq deputatlari Paxtachi tumani Kengashining 2023-yil 29-dekabrdagi “Paxtachi tumanining 2024-yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida”gi VI-99-156-7-102-K/23-sonli qaroriga o‘zgartishlar kiritish to‘g‘risidagi takliflari ma’qullansin.

2. Quyidagilar:

Xalq deputatlari Paxtachi tumani Kengashining 2023-yil 29-dekabrdagi “Paxtachi tumanining 2024-yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida”gi VI-99-156-7-102-K/23-sonli qarorining 1-ilovasiga 1-ilovaga muvofiq;

Xalq deputatlari Paxtachi tumani Kengashining 2023-yil 29-dekabrdagi “Paxtachi tumanining 2024-yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida”gi VI-99-156-7-102-K/23-sonli qarorining 2-ilovasiga 2-ilovaga muvofiq o‘zgartirishlar kiritilsin.

3. Paxtachi tumani mahalliy budjetining 2024-yilgi ijrosi jarayonida bir hududiy budjet mablag‘larini taqsimlovchi uchun ajratilgan budjet mablag‘larini boshqa hududiy budjet mablag‘larini taqsimlovchiga o‘tkazish bo‘yicha 3-ilovaga muvofiq o‘zgartirishlar kiritilsin.

4. Paxtachi tumani Iqtisodiyot va moliya bo‘limi (S.Boyqabilov) tuman mahalliy budjetining 2024-yilgi xarajatlari rejalariga tegishli o‘zgartirish kiritsin.

Shuningdek, mahalliy budjetlar rejasiga ta’sir etuvchi hukumat qarorlari bo‘yicha xalq deputatlari tuman Kengashiga hisobot berib borishni ta’minlasin.

5. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy budjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar bo‘yicha doimiy komissiyasi (F.Kenjayev) va tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (U.Arnaqulov) zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi



XAMDAMOV
MUZAFFAR
YAZDONKULOVICH

Xalq deputatlari Paxtachi tumani
Kengashining
2025-yil 25-fevraldagi
VII-6-24-7-102-K/25 -son qaroriga
1-ilova

2024-yil uchun Paxtachi tumani budjeti daromadlari prognoz koʻrsatkichlari

ming soʻmda

№	Daromad turlari	Miqdori
JAMI		**110 286 829**
1	Yuridik shaxslardan olinadigan foyda soligʻi	6 923 200
2	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad soligʻi	28 610 500
3	Aksiz soligʻi, jami	15 835 000
	shu jumladan:	
	- yakuniy isteʼmolchilarga benzin, dizel yoqilgʻisi va gaz realizatsiya qilishdagi aksiz soligʻi	*15 835 000*
4	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	4 008 500
5	Yuridik shaxslar yer soligʻi	18 185 000
6	Aylanmadan olinadigan soliq	6 450 000
7	Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	6 032 100
8	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer soligʻi	11 680 000
9	Yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun jismoniy shaxslardan olinadigan daromad soligʻi	1 484 000
10	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	6 136 452
11	Noruda qurilish materiallari boʻyicha yer qaʼridan foydalanganlik uchun soliq	4 000 000
12	Davlat mulki boʻyicha ijara toʻlovlari	61 077
13	Yigʻimlar	881 000

Xalq deputatlari Paxtachi tumani
Kengashining
2025-yil 25-fevraldagi
VII-6-24-7-102-K/25 -son qaroriga
2-ilova

2024-yil uchun Paxtachi tumani budjetidan hududiy budjet mablagʻlarini taqsimlovchilarga ajratiladigan xarajatlarning umumiy cheklangan miqdorlari

ming soʻmda

№	Koʻrsatkichlar	Miqdori
Xarajatlar miqdori, Jami		**242 372 365**
1	Maktabgacha va maktab taʼlimi boʻlimi	52 511 106
2	Tibbiyot birlashmasi	89 741 940
3	Madaniyat boʻlimi	10 174 090
4	Yoshlar siyosati va sport boʻlimi	12 190 670
5	Qishloq xoʻjaligi boʻlimi	4 219 082
6	Irrigatsiya boʻlimi	4 229 309
7	Iqtisodiyot va moliya boʻlimi	2 080 792
8	Kambagʻallikni qisqartirish va bandlik boʻlimi	7 854 938
9	Soliq inspeksiyasi	4 460 757
10	Hokimiyat	54 909 682

Xalq deputatlari Paxtachi tumani
Kengashining
2025-yil 25-fevraldagi
VII-6-24-7-102-K/25 -son qaroriga
3-ilova

Paxtachi tumani mahalliy budjetining 2024-yilgi ijrosi jarayonida bir hududiy budjet mablag‘larini taqsimlovchi uchun ajratilgan budjet mablag‘larini boshqa hududiy budjet mablag‘larini taqsimlovchiga o‘tkazish bo‘yicha o‘zgartirishlar

ming so‘mda

№	Ko‘rsatkichlar	Ko‘payishga	Kamayishga
Xarajatlar miqdori, Jami		**2 606 273**	**-2 606 273**
1	Maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi	0	-1 312 762
2	Tibbiyot birlashmasi	0	-252 410
3	Madaniyat bo‘limi	0	-733 942
4	Yoshlar siyosati va sport bo‘limi	14 849	0
5	Qishloq xo‘jaligi bo‘limi	1 728 514	0
6	Irrigatsiya bo‘limi	0	-1 597
7	Iqtisodiyot va moliya bo‘limi	0	-58 855
8	Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bo‘limi	0	-31 455
9	Soliq inspeksiyasi	0	-215 253
10	Hokimiyat	862 910	0